INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY DARSLARDAN VA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Raxmatova Saboxat Narzullayevna

Sayxunobod tumani 2- sonli kasb- hunar maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb- hunar maktablarining informatika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati informatika fanlarini o'qitish zaruriyati kabi fikrlar yoritilgan. Ushbu maqola vatanimizda informatika fanining rivojlanish istiqbollari kasb-hunar maktablarining informatika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada yana informatika fanini o'qitishda noan'anaviy darslardan foydalanish hususida ham ma'lumotlar yoritib berilgan va uning afzalliklari tahlil etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Informatika, o'yinli texnologiya, axborotni uzatish, shaxsiy kompyuter, innovatsion texnologiya, texnik vositalar, ma'ruza usuli, an'anaviy va noan'anaviy darslar.

Fan va texnika jadal suratda rivojlanib borayotgan davrda, texnologiyalardan foydalanib dars o'tish o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimli qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda kasb- hunar maktablarida informatika fani asosiy fanlar sirasiga kiradi. Boisi, hozirgi axborotlashgan zamonda kompyuter texnologiyasini biladigan, turli dasturlar bilan ishlay oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj katta.

Hozirgi kunda kasb- hunar maktablaridagi o'quv jarayonini jadallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu o'qitishni individuallashtirish va bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Bunga erishish esa o'qitishning faol shakllari va usullarini joriy qilish, o'quv- tarbiyaviy jarayonni ilmiy- ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini tashkil etish hamda o'quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishning yangi va samarali shakllarini yaratishni taqozo etadi. Ta'lim muassasalarining zamonaviy texnik vositalar, axborotkommunikatsion texnologiyalar va o'quv laboratoriya jihozlari bilan qaytadan ta'minlanishi o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida pedagog–o'qituvchilar zimmasiga yana bir qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kun o'qituvchisi endi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnik vositalar bo'yicha ham zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurdir. Shuningdek bugungi kun o'qituvchisi an'anaviy o'qitish usullarini yanada takomillashtirib, informatika fanini o'rgatishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga izchil qo'llashi va jadal rivojlanib, shakllanib borayotgan o'qitish usullaridan muntazam xabardor bo'lib turishi muhimdir.

Hozirgi zamon ilmiy- texnika taraqqiyotining asosi bo'lmish hisoblash texnikasidan ishlab- chiqarishning turli iqtisodiy vazifalarini hal etish va har xil hisobga olish, ulkan hajmdagi axborotlar bilan ishlash zaruriyati elektron mashinalarsiz hal etishga imkon bermaydi. Hisoblash texnikasi yordamida mashinasozlik, transport ishlab chiqarishini rejalashtirish, loyihalash, hisoblash hamda tahlil ishlari keng hal qilinmoqda. Shuning uchun ham hisoblash texnikasi keng joriy etilishi munosobati bilan bu texnikalardan mustaqil foydalana oladigan mutaxassislarga talab oshib bormoqda.

Informatika fanning asosiy maqsadi ham talabalarga zamonaviy kompyuterlarda ishlashni ichki va tashqi qurilmalari va ularning ishlash prinsplari bilan tanishtirish bilan birga kompyuterda mustaqil ishlay oladigan o'quvchilarni yetishtirishdir. Bu har qanday korxona faoliyati ravnaqi uchun hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi, hamda mehnat unumdorligini oshirishda katta yordam beradi.

«Informatika» yo'nalishidagi fanlarni o'qitish zaruriyati, tuzilmasi va faoliyat ko'rsatish sohalarida yuqori sur'atlar va fundamental o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jamiyatdagi bunday o'zgarishlarning ildizi axborotlar hosil qilish, ularni saqlash, uzatish va ulardan foydalanishning yangi usul va vositalariga borib taqaladi. Biz axborotlashgan davrda turibmiz. Doimo o'sib borayotgan axborot hajmini qayta ishlash va o'z faoliyat doirasida undan unumli foydalanish zaruriyatiga duch kelayotgan jamiyat a'zolari, turli kasb egalari soni tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda kasb- hunar ta'limi va undan keyingi ta'lim bosqichlarini o'z ichiga olgan va informatika va dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlarga mo'ljallangan «Informatika» fani pedagogikamiz uchun yangi bo'lgan nizom va qarashlar sistemasiga asoslangan:

- kadrning butun «hayotiy sikli» hisobga olinishi kerak;

- informatika yo'nalishidagi fanlarni o'qitish dunyoning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarni aks ettirishi kerak;

- informatika va dasturiy ta'minot bo'yicha mutaxassis bo'lmaganlarga dasturlashni o'rgatish zaruriyatidan voz kechish lozim;

- informatika yo'nalishidagi fanlarni o'qitish didaktik spiral tamoyili asosida qurilishi kerak;

- ishlab chiqilayotgan o'quv kurslari mazmunining yangiligi va dolzarblik muddatini uzaytirishni axborotni qayta ishlash tamoyillariga urg'u berish asosidagina amalga oshirish mumkin;

- shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish sifatlarini kafolatlashga yo'naltirilganlik;

- o'qish vaqti resurslarini o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, o'quv ijodiy faoliyatini tashkil etish foydasiga qayta taqsimlash.

Informatika darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. O'yinli texnologiyaning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Informatika darslarida o'yin texnologiyalarini qo'llashning bir nechta samarali tomonlarini olimlar quyidagicha tahlil etishgan, ya'ni mehnat va o'qish faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini- o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi.

Informatika darslarida o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi, ular o'z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi.

-Maftunkorlik

-Kommunikativlik

-O’z imkoniyatlarini amalga oshirish

-Davolovchilik

-Tashxis

-Millatlararo muloqat

-Ijtimoiylashuv

O’yin texnologiyalarini darslarda qo’llanilishining afzallik taraflari shuni ko’rsatadiki, o’quvchi yoshlarda avvalombor, har bir qo’yilgan mavzuni chuqur tahlil etib keyin davom ettirishi shakllantiriladi. O’yin texnologiyalarini qo’llash orqali o’quvchilar bilim saviyasi quyidagi uchta parametr bo’yicha tahlil etilgan holda ushbu jarayon yaxshi natijalar bergan. Bular quyidagilardir:

1. Bajarilayotgan jarayonni ko’rish orqali

2. Bajarilayotgan jarayonni sezish orqali

3. Bajarilayotgan jarayonni eshitish orqali

Bu uch ko’rsatkich orqali o’quvchilar berilayotgan mavzuning mazmun- mohiyatini turlicha tahlil etishadi. Masalan: Ko’rish orqali berilgan axborotning 75%ini, sezish orqali berilgan axborotning 12% ini, eshitish orqali berilgan axborotning 13% ini o’zlashtirishi mumkin bo’lar ekan. Shuni e’tiborga olib, har bir o’tilishi kerak bo’lgan mavzuni, turli o’yinli qismlarini qidirib topish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Aksariyat hollarda informatika fanini o‘qitishda ma’ruza usuli qo‘llaniladi. Bu usul ayrim o’quvchilarning darsda faolligini susaytiradi va tinglovchining diqqatini shu mavzuga va u bilan bog’lik bo‘lgan texnik jarayonlarni tushunishga jalb qilish qiyin kechadi. Endilikda bizning nazarimizda mavzuni bayon qilishda va yoritib berishda ko‘proq axborot- kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini yanada yaxshilaydi va oshiradi. Shunday ekan informatika va texnika fanlarini o‘qitishga e’tiborni jalb qiladigan ayrim xulosalar to‘g‘risida fikr yuritamiz. O‘rganilayotgan mavzularga doir materiallarning elektron variantlarini internetga joylashtirish ham o‘qitish sifat va samaradorligini oshirish omillaridan biridir. O’quvchi mustaqil o‘rganish jarayonida internetdan foydalanib berilgan topshiriqlarni bajarish uchun izlanish olib boradi, yoki ma’lum uzrli bir sabablarga ko‘ra, darsga qatnasha olmagan o’quvchi elektron manbalardan kerakli ma’lumotlarni olish imkoniga ega bo‘ladi. Bu o’quvchiga qulaylik yaratish bilan birga undagi bo‘shliqni to‘ldirish imkonini beradi.

An’anaviy darsda aksariyat hollarda o‘qituvchi gapiradi. Bu esa o’quvchilarning faolligini ma’lum darajada susaytiradi. Noan’anaviy dars esa asosan o’quvchini darsda mustaqil faol ishlashga, erkin fikrlashga va muloqotda bo‘lishga imkon beradi. Texnik vositalar yordamida dars o‘tish berilgan qisqa vaqtdan unumli foydalanishga sharoit yaratib beradi. An’anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o‘zining ma'lum tarixiga ham egadirlar. Biroq ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda an’anaviy ta’limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiy muammolar o‘z yechimini topmayotganligi, qator ilg‘or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o‘qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumiy maqsadlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarni nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi. An’anaviy darslarda ko‘rgazmali vosita sifatida plakatlardan foydalanib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda kompyuter, slayd, multimedia vositalar kabi zamonaviy axborot– kommunikatsion texnologiyalari keng tadbiq etilmoqda. Noan’anaviy darslarda an’anaviy darsdan farqli ravishda tasvir va tovush uyg‘unligi o’quvchining faolligini va ularning o‘tilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi hamda berilayotgan ma’lumotlarning uzoq muddatga xotiralarida saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Eng muhimi har bir o’quvchini mustaqil ishlashga va fikrlashga undaydi.

Informatika fanini o‘qitishda axborot – kommunikatsion vositalardan unumli foydalanish va uni dars jarayonida qo‘llash uchun eng birinchi o‘rinda pedogog–o‘qituchilarning o‘zlari texnik vositalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchi muntazam ilmiy, ilmiy – ijodiy izlanishda bo‘lishi kerak. Aks holda o‘qituvchining mehnat samarasi talabga javob bermay qoladi.

Axborot – kommunikatsion vositalarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bunda faqatgina dars jarayonida emas, balki darsga tayyorgarlik jarayonida ham o‘qituvchining eng yaqin va qulay ko‘makchisidir. Bu jihatlari bilan ushbu texnik vositalar o‘qituvchi faoliyati samaradorligini oshirishga hissasi beqiyos kattadir.

Xulosa qilib shuni aytamanki, Vatanimizda hozirgi kunda informatika faniga oid bilimlar keng qo‘llanilmoqda. Demak, zamonaviy texnalogiyalardan oqilona foydalanish ish samaradorligini va sifatini oshiradi.

Ta’lim tizimini zamonaviy jahon andozalari darajasiga erishadigan va bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan kadrlarni tayorlashni tashkil etish va rivojlantirish asosida O‘zbekistonni yangi taraqqiyot davrini yaratamiz. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish masalasi informatika va IT sohalarini rivojlantirish dolzarb masalalar sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ta‘lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish davrida farzandlarimiz o'z hayotlarini yengillashtirish uchun har doim va hamma joyda kompyuterdan foydalanishlari kerak. O‘quvchilar juda katta hajmdagi ma'lumotlarni idrok etishi va qayta ishlashi, har qanday faoliyat sohasida ular bilan ishlashning zamonaviy vositalari va usullarini o'zlashtirishi kerak.

Darsda texnik vositalardan foydalanish o’quvchining o‘zlashtirish koeffitsentini bir necha barobar oshiradi. Xususan, informatika va texnika fanlarini o‘rgatishda noa’nanaviy usullarni va axborot – kommunikatsion vositalarni keng joriy etish har bir o‘qituvchining kundalik uslubiga aylanishi zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boltayev B, Azamatov A, Pardayeva M va b. Sanoq sistemalari. Kompyuter tuzilishining nazariy asoslari seriyasidan 1-kitob. T. 2016 y.
2. Topildiyev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslari. T.: 2015
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Informatika
4. www.ziyonet.com
5. www.arxiv.uz